BG Pulse Journal USA
ISSN:1947-2536 http://www.bgpulseusa.com/index.php/bg

KO‘ZI OJIZ SHAXSLAR TA’LIM TIZIMINI INKLYUZIV ATROF-MUHIT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Mehmonqulova Mardona G‘aybullayevna
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.24211837

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda ko‘zi ojiz fuqarolarning ta’lim olish jarayonidagi dolzarb muammolar, xususan, maxsus o‘quv adabiyotlari va darsliklarning yetishmasligi hamda ularning oliy ta’lim bilan qamrab olinish darajasi pastligi tahlil qilingan. Muallif tomonidan xorijiy ilg‘or tajribalarni (AQSh va Finlandiya) o‘rgangan holda, ko‘zi ojiz shaxslar uchun maxsus audio darsliklar jamlangan mobil ilova yaratish, soliq imtiyozlari joriy etish va to‘liq inklyuziv ta’lim modeliga o‘tish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: inklyuziv ta’lim, mobil ilova, audio darslik, ko‘zi ojizlar ta’limi, Brayl alifbosi, raqamli integratsiya, soliq imtiyozlari.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda har bir fuqaroning, xususan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning sifatli ta’lim olish huquqini ta’minlash davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “**Yoshlarimizga munosib ta’lim berish, ularning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarishimiz kerak. Shu maqsadda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishimiz, o‘rta va oily o‘quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini, ilmiy va o‘quv jarayonlari sifatini tubdan yaxshilashimiz kerak”**.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, **“2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”** dasturining
42-maqsadida 2026-yilga qadar yangi avlod darsliklari, mashq daftarlari hamda zamonaviy mobil ilovalarni yaratish belgilab qo‘yilgan. Biroq, bugungi kunda jamiyatning alohida yordamga muhtoj qatlami, xususan, ko‘zi ojiz fuqarolarning ta’limiy ehtiyojlarini to‘liq qondirishda muayyan tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

MUAMMONING QO‘YILISHI VA STATISTIK TAHLIL

Respublikamizda bugungi kunda **umumiy hisobda 25 558 nafar ko‘zi ojiz fuqaro** istiqomat qiladi. Ularning gender tarkibini tahlil qilganda, 11 501 nafarini (45%) ayollar va 14 057 nafarini (55%) erkaklar tashkil etadi.

Eng achinarli holat shundaki, davlatimiz rahbari tomonidan oliy ta’lim va kitobxonlik qamrovini kengaytirishga ulkan e’tibor berilayotgan bir davrda, **ko‘zi ojiz fuqarolarning bor-yo‘g‘i 3 171 nafari (12%)gina ta’limga qamrab olingan**. Mazkur past ko‘rsatkich va muammoning kelib chiqishiga quyidagi omillar sabab bo‘lmoqda:

Resurslar yetishmasligi: Ta’limga jalb etilgan shaxslar uchun ham brayl alifbosidagi maxsus fan darsliklarining yoki ularning audio shakllarining yetarli darajada mavjud emasligi.

Infratuzilma yo‘qligi: Ko‘zi ojiz abituriyentlarni oliy ta’lim muassasalariga tayyorlaydigan maxsus davlat yoki nodavlat o‘quv markazlarining mavjud emasligi.

Mavjud resurslarning tarqoqligi: Oliy o‘quv yurtlarining maxsus fanlari bo‘yicha audio materiallar bazasining tizimlashtirilmaganligi.

XORIJIY TAJRIBA TAHLILI

Ta’lim tizimi yuqori darajada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, imkoniyati cheklangan bolalarni alohida ajratilgan maktablarda emas, balki umumiy ta’lim muhitiga integratsiya qilgan holda o‘qitish samarali natija beradi.

Finlandiya va AQSh tajribasi: Ushbu mamlakatlarda maktab yoshidagi ko‘zi ojiz bolalar oddiy umumta’lim maktablarida tengdoshlari bilan birga ta’lim oladi (Inklyuziv model). AQShda oliy ta’lim bosqichida har bir talaba uchun maxsus tyutor (ko‘makchi) biriktiriladi va ta’lim individual reja asosida tashkil etiladi. Shuningdek, ularda Brayl materiallari juda keng va sifatli qo‘llaniladi, kuchli davlat stipendiyalari hamda federal grantlar tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

O‘zbekistonda esa hozircha ushbu ko‘rsatkichlar cheklangan bo‘lib, tyutorlik xizmati hamda Brayl materiallari yetishmovchiligi yaqqol ko‘zga tashlanadi.

MUAMMONI HAL ETISH BO‘YICHA INNOVATSION TAKLIFLAR

Ko‘zi ojiz fuqarolarning ta’lim tizimidagi to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi:

Bosqichma-bosqich to‘liq inklyuziv ta’limga o‘tish: Xorijiy tajribaga tayanib, 2027-yil 1-iyundan boshlab Toshkent shahri va Toshkent viloyatida,
2028-yil 1-yanvardan esa respublikaning barcha hududlarida to‘liq inklyuziv ta’lim tizimini joriy etish.

Iqtisodiy rag‘batlantirish va soliq imtiyozlari: Brayl yozuvidagi kitoblarni bosib chiqarishga ixtisoslashgan nashriyotlar hamda ko‘zi ojizlarga ta’lim beruvchi o‘quv markazlariga (tadbirkorlikni birinchi marta boshlaganlar uchun) 1 yil muddatga soliq imtiyozlarini berish.

Yagona raqamli platforma – Mobil ilova yaratish: Tegishli vazirlik va idoralar (Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi, Yoshlar ishlari agentligi, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Raqamli texnologiyalar vazirligi va Moliya vazirligi) hamkorligida barcha fan darsliklarining audio shaklini jamlagan maxsus mobil ilova loyihasini ishga tushirish.

Loyihani amalga oshirish bosqichlari: I bosqich: Ilovani yaratish uchun sarflanadigan mablag‘larni hisoblash va moliyalashtirish manbalarini aniqlash,
II bosqich: Fanlar bo‘yicha malakali professor-o‘qituvchilar va kadrlarni jalb etish, **III bosqich:** Maxsus fan darsliklarining audio shakllarini professional studiyalarda yozib olish va mobil platformani texnik ishlab chiqish.

KUTILAYOTGAN ILMIY VA IJTIMOIY-IQTISODIY NATIJALAR

Ushbu innovatsion loyihalarning hayotga tatbiq etilishi jamiyatda quyidagi ijobiy natijalarni kafolatlaydi:

Ijtimoiy integratsiya: To‘liq inklyuziv ta’lim orqali ko‘zi ojiz shaxslar o‘zlarini jamiyatdan chetlatilgan his qilmaydilar, tengdoshlari bilan bir muhitda shakllanadilar.

Iqtisodiy va vaqt samaradorligi: Mobil ilova ko‘zi ojiz shaxslarning kitob qidirish va resurs topishga ketadigan vaqti hamda mablag‘ini sezilarli darajada tejaydi. Bilim olish imkoniyati keskin oshishi hisobiga imkoniyati cheklangan yuqori malakali kadrlar salmog‘i ortadi.

Tadbirkorlik rivoji: Nashriyot va o‘quv markazlariga berilgan soliq imtiyozlari tufayli xususiy sektor rivojlanadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi.

XULOSA

Ko‘zi ojizlar uchun maxsus fan darsliklarining mobil ilovasini yaratish va inklyuziv ta’lim modellarini joriy etish – ijtimoiy adolat tamoyillariga to‘la mos keladi. Bu loyihalar imkoniyati cheklangan fuqarolarning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini ro‘yobga chiqarish va ularni Yangi O‘zbekistonning faol bunyodkorlariga aylantirish uchun muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-sonli Qarori.

- “2022—2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” dasturi (42-maqsad).